



“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA QO‘LLALANILGAN MILLIYLIGIMIZGA XOS MAQOL, HIKMATLI SO‘Z VA IBORALAR TAHLILI

To‘yeva Parizod

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti, birinchi bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llanilgan milliylikimizga xos maqol, ibora, hikmatli so‘zlarning o‘rni va tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: milliylikimizga xos maqol, ibora, hikmatli so‘zlar.

O‘tkir Hoshimov – el ardoqlagan adib, o‘tkir so‘z ustasi. Adibning barcha asarlari o‘zbek xalqining mulkiga aylanib bo‘lgan. Kitobxonlar O‘tkir Hoshimov asarlarini sevib mutolaa qiladilar. Adibning “Ikki eshik orasi” romani 1986-yilda nashr etilgan. Undagi voqealar urush arafasida boshlanib, urush yillarida va urushdan keyin ham davom etgan. Asar voqealari juda mahorat bilan tasvirlangan. Asarning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi og‘irliklarini yelkasida ko‘targan, unda g‘olib chiqqan kishilardir. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma‘nosi, insonning insonlik sha‘ni, burchi, ma‘suliyati, e‘tiqodi, maqsadlariniko‘taradi. Kitobxonni ular haqlarida o‘ylashga majbur etadi. Asarda ko‘plab katta-kichik obrazlar mavjud. Undagi muallim Samadov, Fotima, Zuhra kelinlar, Rashid abzi, Parcha opa, Ochil kabi qahramonlardan tortib asarning markaziy qahramonlari Muzaffar, Qora amma, Orif oqsoqol, Duma, Robiya, Kimsanga qadar barchasi chigal taqdir egalari. “Ikki eshik orasi” deganda inson umrini ya‘ni tug‘ilgandan o‘lgunga qadar bo‘lgan masofani nazarda tutadi. Hr bir asarda milliylikimizga xos maqol, ibora, hikmatli so‘zlar topiladi, ammo bu asarda ular keng qo‘llanilgan. U har xil sahna kishilari tomonidan ularning o‘zaro muomalalari, hazil-mutoyibalari, munozara, hazil-mutoyibalari, munozaralari, do‘stona suhbatlari jarayonida yaratiladi va qo‘llaniladi. Ibora, hikmatli so‘z, maqollar fikrning tasirchan, mazmunli va lo‘nda chiqishi uchun xizmat qiladi. Asarda “Chuchvarani xom sanabsan”-xom hayol qilib yuribsan, xomtama bo‘lma; “Yulduzi yulduziga to‘g‘ri keldi”-biriga mos bo‘ldi; “Jo‘jani kuzda sanaymiz”-kim haq ekanligini vaqt ko‘rsatadi; “Ko‘ziga cho‘p solmoq”-aldamoq; “Bir qoshiq suv bilan yutgulik”-juda chiroyli go‘zal; “Ichagini boshiga salla qilmoq”-haqorat,



dag‘dag‘a, mensimaslik. “Boshini ikkita qilmoq”-uylantirmoq, ikki yoshni nikohlab, bir yostiqqa bosh qoydirish; “Sovuq xabar”-yomon, yoqmaydigan xabar; “Etni tirnoqdan ayirib bo‘lmaydi”-onani boladan ajratib bo‘lmaydi; “Itning orqa oyog‘i bo‘lmoq”- yugurdak bo‘lib , hech nimaga yarmay yurmoq; “Osmondagi qushni bejaydigan chevar”-juda mohir, qo‘li gul tikuvchi; “O‘pkasidan oy ko‘rinib yuribdi”; “Qoqqanda qoziq , osganda xurmochasiz o‘tirimmiz”-hech narsasiz o‘tirimmiz; “Ilonning yog‘ini yalagan”-juda ayyor ; “Ilon chaqqandek sapchib ketdi”-birdaniga bezovta bo‘lib ketdi; “Quduqqa tushgan toshday na o‘ligini xabari bor, na tirigini”-daragi yo‘q, yitgan kabi iboralar personajlar nutqini yanada boyitishga xizmat qilgan. Maqol xalq orasida kun sayin tug‘ilib turganidek, ota-bobolar so‘zi sifatida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadi. U shaklan qisqa bo‘lib, voqelikni yoyiq holda ifoda etadi. O‘tkir Hoshimov ham xalqimiz maqollaridan milliy ruhni shakllantirishda keng foydalangan. “Sabrning tagi sariq oltin” “ Mol egasiga o‘xshamasa xarom o‘ladi” “Yaxshi kelsa kut, yomon kelsa yut” “Ot o‘rnini toy bosar” “Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u” “Shirin yolg‘ondan achchiq haqiqat yaxshi” “Suymaganga suykalma” “Bo‘sh qop tik turmas” “Otimizga or, itimizga nomus” “Farzand bilan davlatning kechi yo‘q “ “Ot aylanib qozig‘ini topadi” “Ot tepkisi otga o‘tmaydi” “O‘zi yo‘qning ko‘zi yo‘q” kabi maqollar asar tasirchanligini oshirgan. Xalq maqollari o‘zida chuqur ma’no kasb etadi. Ular ibratli so‘z bo‘lib, tarbiya vazifasini ham bajaradi. Tugal fikrni ifodalovchi, o‘tkir mazmunli, qisqa va lo‘nda ibora, bayt, jumla hikmatli so‘z deyiladi. Ular voqelik tahlili zamirida, tasvirichida muallif muddaosining lo‘nda ifodasi tarzida “bexosdan”, “favqulodda”, “qissadan hissa” tarzida paydo bo‘lishi mumkin. O‘tkir Hoshimovning barcha asarlarida hikmatli so‘zlarni uchratamiz. Masalan: “Sadoqat va xiyonatning orasi shunchalik yaqinmi”, “Amal-asov otdek gap. Qo‘lingdan bir chiqardingmi, ikki dunyoda ham yetolmaysan”, “Ot-ku oxir-oqibat egasiga qaytib kels kelar, lekin amal qaytmaydi, uni allaqachon boshqasi egarlab minib olgan bo‘ladi” , “Rost bilan yolg‘onning orasi-to‘rt enlik” degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko‘p emas, to‘rt enlik? Gap shundaki, ko‘z bilan quloqning orasi -to‘rt enlik ekan. “Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon”. Maqsad shu. Nachora, hamma ham rost gapiravermaydi. Ammo yolg‘on gapirayotgan odam ham ichida rostini o‘ylaydi kabi ma’noli so‘zlardan foydalangani bu ijodkorning mahoratidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asarda hikmatli so‘z, ibora va maqollardan qanchalik ko‘p foydalanilsa asar shunchalik o‘qishliva mazmunli bo‘ladi. Hikmatli so‘z va maqollarni kitobxon o‘ziga mulohaza qilib, ulardan juda ko‘p narsalarni o‘rganishi mumkin. Bular ibrat namunasi hisoblanadi. Maqollar ota-bobolarimizning



ko‘rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yaratilgan. Ularda o‘z milliyligimizni ko‘rishimiz mumkin. Insonlar maqol, ibora, hikmatli so‘zlarni o‘z nutqlarida qo‘llasalar, ularning nutqi ravon, tasirchan, aniq va shirador bo‘ladi. Shunday ekan, bizning hayotimizda ularning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” . Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
2. Dusenboyev. O “Ikki eshik orasi” romani haqida .
3. Said Ahmad “Ikki eshik orasi” romani haqida.
4. Azamatov. M “Hikmatlar xazinasini” . Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti